

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 16-oktabr, № 211 (8834) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TOSHKENT VILOYATINING INDUSTRIAL SALOHIYATI YANADA KENGAYADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 15-oktabr kuni Toshkent viloyatining Olmaliq shahriga tashrif buyurdi.





Bu shaharning asosi va drayveri – Olmaliq kon-metallurgiya kombinati. Iqtisodiyot, ish o‘rinlari, uy-joylar, madaniyat va ta’lim maskanlari ushbu majmua negizida shakllangan.

Bugun izchil o‘sish, zamon bilan ildamlash kerak. Davlatimiz rahbari har bir sohani ilmga asoslanib rivojlantirish talabini qo‘yadi.

Olmaliqda ham kadrlar tayyorlash shu yo‘sinda yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, shaharda Toshkent davlat texnika universitetining hamda Moskva po‘lat va qotishmalar institutining filiallari ochilgan. Yaqinda bularga qo‘shimcha Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining Muhandislik maktabi tashkil etildi.

Prezident, avvalo, mazkur maktab faoliyati bilan tanishdi.

Bu yerda Germaniya tajribasi asosida yiliga 480 nafar muhandis tayyorlanadi hamda ming nafar xodimning malakasi oshiriladi. Dars jarayonlari yo‘nalish va mavzulardan kelib chiqib xorijlik professor-o‘qituvchilar ishtirokida olib boriladi.

O‘quv dasturi Germaniyaning Frayberg konchilik akademiyasi, “GP Gnter Papenburg AG” va “Aurubis AG” kompaniyalarining ilg‘or ta’lim metodologiyalari asosida ishlab chiqilgan. Maktab shunga muvofiq mexanika, metallurgiya, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, foydali qazilmalarni boyitish, energetika yo‘nalishlari bo‘yicha zamonaviy o‘quv-amaliyot uskunalari bilan jihozlangan.

Davlatimiz rahbari mazkur xonalarda bo‘lib, ish o‘rganayotgan yoshlar bilan suhbatlashdi.

– Zamon o‘zgaryapti, har bir sohaga innovatsiyalar kirib kelyapti. Shunga munosib malakali kadr bo‘lish uchun doim o‘z ustingizda ishlashingiz kerak. Kombinat taqdiri – raqamlashtirishda. Har bir bo‘limni, ishlab chiqarishning har bir bosqichini raqamlashtirish zarur, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 3-mis boyitish fabrikasi qurilmoqda. Kelgusida unda ishlaydigan mutaxassislar hozirdan tayyorlanmoqda.

Qisqa vaqtda bu yerda 100 dan ortiq yoshlar o‘qib, tarmoq korxonalariga ishga joylashgan.

Prezidentimiz maktabning samaradorligini yanada oshirish zarurligini ta’kidladi. Buning uchun o‘quvlar muntazam tashkil etilishi, eng muhimi, amaliyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak.

Shu yil 20-iyun kuni muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan edi. Unda birinchi bosqichda 10 ta oliy muhandislik maktabi tashkil etilishi belgilangandi. Bugungi kunda shunday maktablar tashkil etilmoqda. “Tarmoq – korxona – oliygoh” zanjirini mustahkamlash maqsadida har birining sanoat hamkori belgilanadi.

Muhandislik maktablari oliy ta’lim muassasalari tarkibida yetakchi yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etiladi. Ularda matematika, fizika, kimyo, muhandislik grafikasi, informatika va xorijiy tillar bo‘yicha chuqur bilim beriladi. Bakalavriat va magistratura “4+1” shaklida yo‘lga qo‘yiladi. Talabalar ikkinchi kursdan ixtisosliklar bo‘yicha saralab olinib, sanoat hamkorlari uchun maqsadli kadrlar tayyorlanadi.

Mazkur maktablarning professor-o‘qituvchilari “El-yurt umidi” jamg‘armasi, tegishli hamkor va universitet mablag‘lari hisobidan yetakchi xorijiy muassasalarga malaka oshirishga yuboriladi. Sanoat hamkorlari soha taraqqiyotidan kelib chiqib zamonaviy laboratoriyalar tashkil etadi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Olmaliqdagi “Yoshlik-1” koni hamda uning negizida qurilayotgan 3-mis boyitish fabrikasini ko‘zdan kechirdi.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati rangli, nodir va qimmatbaho metallar qazib chiqarishda yetakchi. Mamlakatimiz yalpi sanoat mahsulotining 5 foizi, sanoat mahsulotlari eksportining 6 foizi uning hissasiga to‘g‘ri keladi. Kombinat tizimida 35 mingga yaqin kishilar ishlaydi.

O‘tgan yili 148 ming tonna mis, 17 tonnadan ziyod oltin, 162 tonna kumush ishlab chiqarilgan. 1 milliard 100 million dollar investitsiya o‘zlashtirilib, 662 million dollarlik mahsulot eksport qilingan.

Keyingi yillarda geologik qidiruvlar va investitsiyalar miqdori oshgani natijasida ishlab chiqarishning yangi imkoniyatlari topilmoqda. Shulardan biri – “Yoshlik-1” koni. Bu yerda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-martdagi qaroriga muvofiq istiqbolli investitsiyaviy loyiha amalga oshirilmoqda.

Kon hududi 11 ming gektar. Zaxirasi ham salmoqli – yiliga 65 million tonna ma’dan. Bu konda oltin, mis, kumush, molibden, selen kabi 13 turdagi qimmatli va nodir metallar bor.

Davlatimiz rahbari mazkur konda bo‘lib qazish ishlarini ko‘zdan kechirdi, mutaxassislar bilan muloqot qildi.

“Yoshlik-1” koni ma’danlaridan yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining 3-mis boyitish fabrikasi barpo etilmoqda. Uning qurilishiga 2021-yil 29-iyulda tamal toshi qo‘yilgan edi.

Bu yirik loyihaning qiymati 4,6 milliard dollar bo‘lib, konni qazish, fabrika va uning infratuzilmasini qurishni o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda 200 million kub metr kon yuzasi ochilgan, 41 kilometr temir yo‘l yotqizilgan, 650 megavattli podstansiya qo‘yilgan. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, Xitoy, Rossiya va boshqa Yevropa davlatlaridan uskunalar keltirilgan. Fabrika va boshqa infratuzilmalar qurilishi jadal ketmoqda.

(Davomi 2-betda).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

“ISLOM – EZGULIK VA TINCHLIK DINI” XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Qadrli do‘stlar!

Avvalo, sizlarni azim Toshkent va qadimiy Xiva shaharlarida o‘tkazilayotgan “Islom – ezgulik va tinchlik dini” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilishi bilan samimiy tabriklayman.

Biz dunyoning uzoq va yaqin davlatlaridan tashrif buyurgan siz, aziz mehmonlarni – nufuzli xalqaro islom tashkilotlari rahbarlari, taniqli olim va ulamolar, jamoat arboblari va tadqiqotchilarni tinchlik va totuvlik, do‘stlik va hamjihatlik elchilari, deb bilamiz.

Sizlarning muqaddas islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk allomalarimiz merosini o‘rganish va keng targ‘ib etish borasida olib borayotgan ibratli faoliyatingizni barchamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Ana shunday ezgu ishlaringiz uchun sizlarga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildiraman.

Bag‘rikeng va mehmondo‘st O‘zbekiston diyoriga xush kelibsiz!

Aziz do‘stlar!

Xabaringiz bor, bugungi anjumanimiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2023-yil 19-sentabr kuni Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan 78-sessiyasida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan tashabbus asosida o‘tkazilmoqda.

Ushbu ezgu tashabbus xalqaro hamjamiyat va sizlar kabi ma’rifatparvar va oqil insonlar tarafidan qo‘llab-quvvatlangani bizga mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Konferensiyamizning “Islom – ezgulik va tinchlik dini” deb nomlanishi ham albatta bejiz emas. Hammamiz yaxshi bilamizki, islom dini odamzod uchun tinchlik va omonlik dini sifatida yuborilgan buyuk ta’limotdir. Muqaddas Qur’oni karimning “Baqara” surasi, 208-oyatida: **“Ey, iymon keltirganlar, yoppasiga tinchlik ishiga kirishingiz!”**, deya da’vat qilingani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Ulug‘ vatandoshimiz Imom Termiziy hazratlari rivoyat qilgan: **“Allohdan afv va tinchlik-omonlikni so‘ranglar. Chunki biror kishiga iymondan keyin tinchlik-omonlikdan afzalroq ne’mat berilgani yo‘q”**, degan hadisi sharifda ham tinchlik va barqarorlikning insoniyat hayotida qanday beqiyos ahamiyatga ega ekani alohida ta’kidlangan.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda islom dinining ezgu qadriyatlari, nomlari dunyoga mashhur mutafakkir olimu ulamolarimiz merosini asrab-avaylash, ularni ilmiy o‘rganib, xalqimiz va jahon ahliga yetkazishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yetti yilda mamlakatimizda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilgani, ilmiy-ma’rifiy jihatdan g‘oyat noyob bo‘lgan Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilgani buning yorqin dalilidir.

Ayni vaqtda Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy”, “Tarix”, “Xalqu af’ol al-ibod”, Imom Termiziyning “Sunani Termiziy”, Imom Moturidiyning “Ta’vilot al-Qur’on”, “Tavhid”, Abu Muin Nasafiyning “Tabsiratul adilla”, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” kabi islom dunyosida nodir sanalgan asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, zamonaviy sharhlari tayyorlangani va bu kabi xayrli ishlar izchil davom etayotganini ta’kidlab o‘tmoqchiman.

So‘nggi yillarda jahonda kuzatilayotgan globallashuv jarayonlarining ijobiy jihatlari bilan birga ayrim noxush holatlar, jumladan, islomofobiya ko‘rinishlari musulmon jamiyatlarining tafakkur va turmush tarzi, madaniyati, urf-odat va qadriyatlariga ham ta’sir ko‘rsatayotganiga hammamiz guvohmiz.

Shu ma’noda, mazkur konferensiyada Yer yuzida tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, mo‘min-musulmonlar uchun manfaatli bo‘lgan azaliy qadriyatlarni asrab-avaylash, globallashuv sharoitida islom dinini zamon bilan uyg‘un va hamohang holda rivojlantirish, ma’naviy poklik va odob-axloqqa qarshi g‘oyaviy tahdidlarning oldini olish, islomda ijtimoiy himoya masalalari kabi muhim mavzularning muhokama etilishi katta ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Ishonamanki, anjuman jarayonida bo‘lib o‘tadigan qizg‘in muhokamalar, bildiriladigan g‘oya va tashabbuslar muqaddas islom dinimizning asl ma’no-mazmunini, ezgulik va tinchlikka xizmat qiladigan oliyjanob g‘oyalarini ochib berish va ommalashtirishda muhim qadam bo‘ladi.

Xalqaro konferensiya doirasida mamlakatimizda mo‘min-musulmonlar uchun yaratilgan sharoitlar, vijdon erkinligini ta’minlash, ulug‘ ajdodlarimizning tabarruk xotiralarini e’zozlash, ularning ilmiy-ma’rifiy merosi va nodir qo‘lyozmalarini tadqiq va targ‘ib etish yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishib, bu boradagi o‘zaro hamkorligimizni yanada rivojlantirish bo‘yicha yangi taklif va tavsiyalarni bayon etasizlar, degan umiddaman.

Sizlarni bugungi nufuzli anjumanning ochilishi bilan yana bir bor qutlar ekanman, Yaratgan Robbimizdan barchangizga sihat-salomatlik, ilmiy va ijodiy faoliyatingizga baraka tilab qolaman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Konferensiya

Zamon bilan uyg‘un va hamohang rivojlanish yo‘lida

Poytaxtimizda “Islom – ezgulik va tinchlik dini” mavzuida xalqaro konferensiya ochildi. Ushbu nufuzli anjumanda Saudiya Arabistoni, Misr, Turkiya, Iordaniya, O‘mon, Rossiya, AQSH, Fransiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Hindiston va Pokiston kabi mamlakatlardan 70 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, din arboblari, muftiylar, taniqli ulamolar qatnashmoqda.

Konferensiya ishtirokchilariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tabrigini Prezident maslahatchisi Xayriddin Sultonov o‘qib eshittirdi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 19-sentabrda bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ilgari surgan tashabbusi asosida o‘tkazilayotgan anjumanga 15-16-oktabr kunlari Toshkent va Xiva shaharlari mezbonlik qilmoqda.

4

IFTIXOR

YURTGA SADOQAT

Milyon yulduz bordir, shams bo‘lakdir,
Chor tarafda odam – shaxs bo‘lakdir,
“Vatanim!” deb urgan yurak yurakdir –
Elim degan elparvar jasorati bu,
Millatparvar mardning zo‘r ibrati bu!

Bir nomki, nasibdir chinakam e’zoz,
Haq so‘zi dunyoga qilmoqda parvoz,
Qo‘llab-quvvatlagay millionlab ovoz –
Farzandiga xalqning muhabbati bu,
Tangrimning nazari, marhamati bu!

Tinchlik tilanmagan jonzot bormikin,
Tinchlik yayratmagan hech zot bormikin,
Tinchliksiz olamda hayot bormikin,
Osuda oqshomlar tarovati bu,
Yurtboshining odil siyosati bu!

O‘zingga tilasang, o‘zga ham bordir,
O‘zgani o‘ylasang, o‘zga ham yordir,
Hammaning egasi Parvardigordir,
Qadrin o‘ylaganning saodati bu,
Yurtboshining yurtga sadoqati bu!

Bu so‘zlarni yozdim millatim deya,
Bobomeros ko‘hna hikmatim deya,
Qabul bo‘lsin ezgu niyatim deya...
Shoir xush tilagin ijobati bu,
Umr halovatin farog‘ati bu!

Har dilda quyoshdek yuz ochsin har on,
Yangi O‘zbekiston – dovrug‘i doston...
Hur xalqim qudrati bo‘lsin namoyon,
O‘zbek o‘zligining dalolati bu,
Uchinchi uyg‘onish kafolati bu!

Oqil Yurtboshining sharofati bu!

Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri.

SAYLOV – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo‘yicha saylov kampaniyasi doirasida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti davom etmoqda. Bugungi sonda O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi nomidan «Milliy va umuminsoniy qadriyatlar – ma’naviy yuksalish va madaniy taraqqiyotning muhim asosi» sarlavhali maqola e’lon qilinmoqda.

3-sahifaga qarang.

SIYOSIY TADBIRLARDA JAMOAT TARTIBI VA XAVFSIZLIGI QANDAY TA’MINLANADI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlarini o‘tkazishda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Saylov kuni tinch va barqaror bo‘lishi saylovchilarning ovoz berishini erkin, ixtiyoriy va xalqaro standartlar asosida amalga oshirish imkonini beradi.

Shuni inobatga olgan holda Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisida saylovlarni o‘tkazishda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash, saylov okruglari va uchastkalari hududlarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda yong‘in xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, saylov komissiyalari joylashgan binolarni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash chora-tadbirlari va boshqa tashkiliy masalalar ko‘rib chiqildi.

Shu munosabat bilan majlisda Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Energetika vazirligi rahbarlari tomonidan saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish davrida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida axborotlar taqdim etildi.

4

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 16-oktabr

TOSHKENT VILOYATINING INDUSTRIAL SALOHIYATI YANADA KENGAYADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Prezidentimiz bu yerdagi ulkan bunyodkorlik ishlari bilan atroflicha tanishdi. Bo‘lajak zavodning iqtisodiy samaradorligi, unda qo‘llaniladigan ilg‘or texnologiyalar, ish jarayonidagi qulayliklar haqida axborot berildi.

Mazkur fabrika birinchi bosqichda yiliga 60 million tonna rudani qayta ishlash quvvatiga ega bo‘ladi. Bu orqali yiliga 917 ming tonna mis va 2,5 ming tonna molibden konsentratlari ishlab chiqariladi. 5 ming 600 kishining bandligi ta’minlanadi.

Bu yirik loyiha turdosh sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga ham turtki berdi. Masalan, fabrika qurilishiga metall konstruksiyalar yetkazib berish uchun 6 ta zavod ishga tushirildi. Muhandislik, dasturiy ta’minot va kasb-hunar ta’limi yangi darajaga chiqmoqda. Yangi turarjoylar va xizmatlarga talab paydo bo‘lmoqda.

Fabrikada logistika jarayoni ham qulaylashtiriladi. Uning barcha korpuslari orasida konveyerlar bo‘ladi. Bu yuk ortish va tashishni bartaraf etib, xarajatlarni qisqartiradi.

Ikkinchi bosqichda quvvat 160 million tonnaga yetadi yoki bugungi ko‘rsatkichdan 3 barobarga ko‘payadi. Ushbu ikki bosqich amalga oshirilishi natijasida korxona 2028-yilga borib yiliga 400 ming tonna mis, 50 tonna oltin va 270 tonna kumush ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘ladi. Shu tariqa Olmaliq kombinati tog‘-kon metallurgiyasi sohasida dunyodagi eng yirik sanoat majmualaridan biriga aylanadi.

Xalqaro baholash mezonlariga ko‘ra, Olmaliqda misning yalpi zaxirasi 45 million tonnani, oltin zaxirasi esa 5 ming tonnadan ziyodni tashkil etishi aniqlangan. Bu dunyo miqyosida ham eng yirik va noyob ko‘rsatkichlardir.

Yana bir muhim tomoni, bugun dunyoda “yashil” iqtisodiyot, elektr texnikasi, elektromobillar sanoati jadal rivojlanmoqda. Buning natijasida 2030-yilga borib mis mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj 40 foizga ortishi kutilmoqda.

Ya’ni Olmaliq kombinati mahsulotlariga talab uzoq yillar davomida xalqaro darajada bo‘ladi. Kelgusida kombinat ishlab chiqaradigan mahsulotlar hajmi 3-martadan ziyod ko‘payib, uning qiymati qariyb 8 milliard dollarga yetadi. 11 mingta yangi, yuqori texnologik ish o‘rni yaratiladi.

Davlatimiz rahbari “Enter Steel” mexanika ta’mirlash korxonasi ustaxonalarida ham bo‘lib, yangi uskunalar va ish jarayoni bilan tanishdi.

Bugun 350 kishi mehnat qilayotgan bu korxona tomonidan yengil va og‘ir sanoat, xususan, tog‘-kon, gaz-kimyo yo‘nalishidagi ishlab chiqarish obyektlariga asbob-uskuna, ehtiyot qismlar yetkazib beriladi. Ishlab chiqarilayotgan balka, ustun, estakada, elektr toki uzatish tayanchlari, suv minoralari, yoritish ustunlari, GSM antenna machtalari kabi metallokonstruksiya mahsulotlari, yuqori bosimga chidamli rezervuarlar, burg‘ilash uskunalari, elektr qutilarga talab yuqori.

Bu yerga Xitoy, Italiya, Germaniya kabi davlatlardan eng zamonaviy uskunalar keltirilgani mahsulotlar sifati va ish unumdorligi yuqori bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda mazkur korxona 3-mis boyitish fabrikasi uchun ham zarur bo‘lgan uskunalarga ehtiyot qismlar yetkazib bermoqda.

Davlatimiz rahbari zavoddagi ishlab chiqarish jarayoni va tayyorlanayotgan mahsulotlarni ko‘zdan kechirdi. Ishchi-xodimlar bilan muloqot qildi. Sanoat rivojlanayotgan hududlarda bu kabi loyihalarni rag‘batlantirish muhimligi ta’kidlandi.

So‘ng Olmaliq shahrida Toshkent viloyati rivojining hozirgi holati va kelgusi vazifalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev hududdagi iqtisodiy-ijtimoiy natijalarni atroflicha tahlil qilib, qo‘shimcha imkoniyatlarni ko‘rsatib o‘tdi.

So‘nggi yetti yilda Toshkent viloyatida ham katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Hudud iqtisodiyoti 1,5 barobarga o‘sib, o‘tgan yili 119 trillion so‘mlik qo‘shilgan qiymat yaratildi, tadbirkorlar 16 mingtaga ko‘payib, 170 ming doimiy ish o‘rni ochildi. 6 milliard dollarlik 826 ta yangi sanoat korxonasi ishga tushdi, 5 milliard dollarlik eksport bo‘ldi. Bularning natijasida o‘tgan to‘rt yilda 70 ming, bu yilning o‘zida 19 ming oila kambag‘allikdan chiqarildi.

Toshkent viloyati tuman va shaharlar soni bo‘yicha respublikada birinchi o‘rinda turadi. Hududdagi davlat idoralarida salkam 10 ming xodim ishlaydi. 1 ming 25 ta mahallada 6 ming 123 nafar “mahalla yettiligi” bor. Bu ichki imkoniyatlarni ishga solib, shaharu qishloqlarni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish uchun yetarli kuch ekani ta’kidlandi.

Shunday manzilli o‘rganishlar natijasida qo‘shimcha 13 milliard dollar investitsiya, 500 ming ish o‘rni, budjetga 3,5 trillion so‘m tushum qilish imkoniyatlari aniqlangan. Bu imkoniyatlarni natijaga aylantirish uchun 22 ta tuman-shaharning har biri bo‘yicha hukumatning alohida qarorlari chiqishi aytildi.

Viloyatda tadbirkorlik qilishga ishtiyoq kundan-kun oshyapti. Poytaxtdagi korxonalar ham infratuzilma yaqinligi, yer, mulk solig‘i, ishchi kuchi arzonligi uchun Toshkent viloyatidan joy qidiryapti. Shu bois Toshkent, Qibray, Zangiota, Yuqori Chirchiq, O‘rta Chirchiq tumanlari, Chirchiq va Nurafshon shaharlari poytaxt tumanlari bilan hamohang rivojlanishi kerakligi ta’kidlandi.

Masalan, Toshkent tumanida 97 gektarda industrial texnopark tashkil qilinadi. Unda tadbirkorlar va banklar ishtirokida 350 million dollarlik yuqori qo‘shilgan qiymatli loyihalar joylashtiriladi. Shuningdek, tumanda ko‘p qavatli uylar, yangi sanatoriylar, sport va ko‘ngilochar maskanlar qurish imkoniyati bor.

Angren, Olmaliq, Ohangaron shaharlari, Piskent va Ohangaron tumanlarining viloyat sanoatidagi ulushi 50 foizni tashkil qiladi. Ular yonma-yon joylashgan bo‘lib, xomashyo zaxirasiga juda boy. Shu bois bu shahar va tumanlarda ishlab chiqarishni kooperatsiya va klaster asosida tashkil etish uchun mutlaqo yangi tizim – “sanoat uchburchagi” dasturi amalga oshirilishi aytildi.

Ushbu hududda 1 ming 100 ta korxona ishlayapti. Yangi loyihalar hisobiga 2-3 yilda ular 1,5 mingga yetadi. Bu kooperatsiya natijasida transport xarajati ham, tannarxi ham kamayadi.

Masalan, Olmaliq kombinati yiliga 9 trillion so‘mlik mahsulot xarid qilyapti. Bu – atrofda joylashgan 5 ta shahar va tuman uchun katta imkoniyat ekani ko‘rsatib o‘tildi.

Umuman, yil yakunigacha xorijiy investitsiyalar hajmini 2 milliard dollarga va eksportni 1,5 milliard dollarga yetkazish, 661 ta loyihani yakunlab, 30 ming yangi ish o‘rni yaratish mumkinligi qayd etildi.

Mashinasozlik sohasidagi talabni to‘liq tahlil qilib, mahalliylashtirishni kengaytirish hamda yirik korxonalar bilan kooperatsiyasini kuchaytirish bo‘yicha uch yillik dastur ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Toshkent viloyatida yer va suv mo‘l. Lekin 1 gektardan o‘rtacha daromad boshqa viloyatlardagiga nisbatan kam. So‘nggi uch yilda viloyatdagi 21 ming gektar yer dehqonchilik uchun 57 ming aholiga berilgan.

Meva-sabzavot eksporti ham o‘tgan yildagicha bo‘lmagan. 2 ming 200 gektar samarasiz bog‘ va tokzor hisobiga yiliga 10 million dollar eksport yo‘qotilyapti. Suv tejovchi texnologiya bo‘yicha Toshkent viloyati eng oxirgi o‘rinlarda.

Shu kabi kamchiliklar sababli viloyat hokimining qishloq xo‘jaligi bo‘yicha o‘rinbosari vazifasidan ozod etildi.

Bog‘dorchilik bo‘yicha yangi tizim asosida Ohangaron va Bo‘stonliqdagi tog‘oldi yerlarda malina va golubika plantatsiyasi, Parkent va Ohangaronda uzum va gilos bog‘lari tashkil qilinishi aytildi. Angrenda anor sharbati ishlab chiqarish, Ohangaron tumanida olxo‘rini qayta ishlash yo‘lga qo‘yiladi. Bu yil ham Toshkent viloyatidagi oilalarga dehqonchilik va bog‘dorchilik uchun qo‘shimcha 5 ming gektar yer beriladi.

Umuman, viloyatni bog‘dorchilikda namunali hudud qilib, eksportni 300 million dollarga yetkazish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Yig‘ilishda kambag‘allikni qisqartirish masalalari ham tahlil qilindi.

Bugungi kunda Toshkent viloyatida 63 mingta kambag‘al oila qolgan bo‘lib, ularning 190 ming nafar a’zosi mehnatga layoqatli. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida kelasi yili viloyatda 116 ming aholini kambag‘allikdan olib chiqish rejalashtirilgan.

Lekin bu yetarli emas. Masalan, Toshkent viloyati kichik biznes orqali aholini ishli qilish bo‘yicha respublikada eng oxirgi o‘rinda. Viloyat sanoatining atigi 25 foizi kichik biznesga to‘g‘ri keladi. Shu bois tadbirkorlikni rivojlantirib, aholiga daromad manbai yaratish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Buning uchun bir yil ichida Sayxunobod tajribasi asosida 27 ming, Zarbdor tajribasi asosida 8,5 ming, Uychi tajribasi asosida 39 ming, G‘ijduvon tajribasi asosida 10 ming kambag‘al aholini band qilish vazifasi belgilandi.

Kichik tadbirkorlik loyihalari uchun ajratiladigan 1 trillion so‘m imtiyozli kredit va 32 milliard so‘m subsidiyalar natijasida 30 ming aholi tadbirkorlikka jalb qilinadi.

Keyingi paytlarda Toshkent viloyatidan xorijga arzon ishlarga ketuvchilar 30 mingga kamaygan. Lekin hali 158 ming kishi chet elda mehnat qilayotgani qayd etildi.

Endi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyati takomillashtirilib, aholini xavfsiz va yuqori daromadli ish bilan ta’minlash bo‘yicha yangi yondashuvlar joriy etiladi. Chet elda mavsumiy ishlab qaytgan va yana ketish istagida bo‘lgan kishilarga yuqori daromadli kasblar o‘rgatiladi. Kasb-hunari borlar xorijiy tillarga o‘qitiladi.

Go‘zal tabiati, qulay infratuzilmasi bor Toshkent viloyatida turizm salohiyati yuqori. Lekin taklifga nisbatan talab ko‘p bo‘lgani sababli narxlar qimmat. Turizm maskanlarini ko‘paytirib, xizmatlar hajmini 2 karra oshirish, 10 million sayyohni jalb qilish imkoniyati borligi qayd etildi. Mutasaddilarga kelgusi yil uchun 1,5 milliard dollarlik loyihalarni shakllantirish topshirildi.

Yig‘ilishda qish mavsumiga tayyorgarlik, energiya iste’moli masalalariga ham to‘xtalib o‘tildi. Yirik korxonalarda energiya sarfi yuqori uskunalarni tejamkoriga almashtirish, mahallalarni issiqlik bilan ta’minlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Toshkent viloyati, shahar va tuman hokimlari, tarmoq rahbarlari yig‘ilishdan xulosalari va kelgusi rejalari yuzasidan axborot berdi. Davlatimiz rahbari aholi vakillari bilan samimiy muloqot qildi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Olmaliq kon-metallurgiya kombinati faoliyati va yangi investitsiya loyihalari bilan ham tanishdi.

Iqtisodiy islohotlar barcha tarmoqlarda o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. So‘nggi olti yilda Olmaliq kombinatida sanoat mahsuloti 1,8 baravar, mahalliylashtirish 7,7 baravar, investitsiya 13 baravar oshgan. “Raqamli OKMK – 2030” strategiyasi doirasida 70 dan ortiq loyihalar amalga oshirilgan.

Ayni paytda yangi majmualar qurilib, mavjud quvvatlar oshirilayotir. Kombinatning 75 yillik tarixi davomida 2 ta fabrika barpo etilgan bo‘lsa, endilikda yangi quvvatlarni barpo etish jarayoni tezlashdi. 2021-yilda “Yoshlik-1” koni negizida 3-mis boyitish fabrikasi qurilishi boshlangan edi. Endi bu loyihaning ikkinchi bosqichi doirasida 4-mis boyitish fabrikasi hayotga ko‘chmoqda.

Davlatimiz rahbari ramziy tugmani bosib, ushbu yangi zavod qurilishini boshlab berdi.

Qiymati 5,3 milliard dollarlik bu loyiha orqali yiliga 146 ming tonna katodli mis, 13 tonna oltin va 73 tonna kumush olish quvvatlari yaratiladi. Yillik ishlab chiqarish hajmi 1,9 milliard dollarga yetadi. Fabrika va uning infratuzilmalarida 3 mingdan ortiq kishilar ishlaydi.

Loyihaga Italiyaning “Wood” hamda Buyuk Britaniyaning “Worley Parsons” kompaniyalari jalb qilingan. Ishlab chiqarishda yuqori texnologik, ekologik xavfsiz va tejamkor texnologiyalar qo‘llanishi belgilangan.

Aytish joizki, hozirgi kunda Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining 5-mis boyitish fabrikasi ham loyihalashtirilmoqda.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Toshkent viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘zA muxbirlari.

Muloqot

Delegatsiyamiz nufuzli anjumanda qatnashmoqda

Ma’lumki, Parlamentlararo Ittifoq dunyo mamlakatlarining qonun chiqaruvchi organlari uchun global muloqot maydoni bo‘lib, uning doirasida muhokama qilingan masalalar jahon hamjamiyati e’tiboriga yetkaziladi.

Jumladan, parlamentlararo aloqalarni rag‘batlantirish va xalqaro tinchlik hamda hamkorlikni mustahkamlash borasida birgalikda faoliyat ko‘rsatish uchun ularni birlashtirish mazkur tuzilmaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ayni kunlarda Jeneva shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 149-assambleyasi bo‘lib o‘tmoqda. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi delegatsiyamiz ushbu anjumanda ishtirok etyapti.

Tashrif doirasida delegatsiyamiz vakillari turli mavzudagi debatlar va sessiyalarda qatnashmoqda. Jumladan, senator Oral Ataniyazova Parlamentlararo Ittifoqning “Salomatlik hamma uchun” dasturi sessiyasida maxsus ma’ruza bilan chiqish qildi.

Ushbu dastur global salomatlikni mustahkamlash va barcha odamlar uchun tibbiy xizmatlardan teng foydalanishni ta’minlashga qaratilgani bilan e’tiborga molik.

Senator O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha sa’y-harakatlar izchillik bilan amalga oshirilayotgani, bu boradagi ishlar Parlamentlararo Ittifoqning “Salomatlik hamma uchun” dasturi g‘oya va maqsadlariga uyg‘unligini alohida ta’kidladi.

Nufuzli anjuman doirasida Senat Raisi boshchiligidagi delegatsiyamiz qator uchrashuvlar ham o‘tkazdi.

Delegatsiyamizning mazkur anjumandagi ishtiroki davom etmoqda.

Uchrashuv

Izchil islohotlarimiz natijalari yuqori baholandi

O‘zbekiston parlamenti delegatsiyasi Jeneva shahrida bo‘lib o‘tayotgan Parlamentlararo Ittifoqning 149-assambleyasida ishtirok etayotganidan xabaringiz bor.

Tashrif doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Parlamentlararo Ittifoq Raisi Tuliya Ekson xonim bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Unda Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar samaradorligi va istiqboldagi rejalarga e’tibor qaratildi.

Suhbat davomida keyingi yillarda yurtimizdagi iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy himoya tizimining takomillashtirilgani hamda inson huquqlari ustuvorligini ta’minlash borasidagi izchil islohotlarimiz natijalari T. Ekson xonim tomonidan yuqori baholandi.

Shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari yo‘nalishidagi faoliyat va bu borada O‘zbekiston parlamenti tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham aytib o‘tildi.

Muloqot davomida Markaziy Osiyo tarixida ilk marotaba O‘zbekistonda o‘tkaziladigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi dasturi va tadbirga doir rejalar, yangi loyihalar ham muhokama markazida bo‘ldi.

150-assambleyaga tayyorgarlik masalalari ko‘rib chiqildi

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Jeneva shahrida Parlamentlararo Ittifoq (PI) Bosh kotibi Martin Chungong bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Muzokaralar davomida O‘zbekiston parlamentining PI bilan hamkorlik aloqalari, kelgusidagi rejalari ko‘rib chiqildi. Jumladan, 2025-yilda O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasiga tayyorgarlik ko‘rish masalalari muhokama qilindi.

Muloqot davomida M. Chungong O‘zbekiston qisqa vaqtda ulkan natijaga erishgani, Toshkentda PIning yubiley assambleyasi o‘tkazilishi parlamentlararo samarali hamkorlikning mantiqiy davomi bo‘lishini qayd etdi.

Suhbat davomida 150-assambleya tarixiy ahamiyatga ega bo‘lishi, O‘zbekiston parlamenti tajribasining namunaviy jihatlarini boshqa davlatlarga namoyon etishi aytib o‘tildi.

Shu bilan birga, Barqaror rivojlanish maqsadlarida nazarda tutilgan gender tenglik, ijtimoiy himoya, inson huquqlarini ta’minlash borasida parlamentning tutgan o‘rnini yanada kuchaytirish masalalariga e’tibor qaratildi.

“Xalq so‘zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLAR KAFOLATI VA AHOLI MANFAATLARI USTUVORLIGI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda kun tartibiga kiritilgan masalalar – investitsiyalar va investitsiya faoliyatini takomillashtirish, fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta’minlash, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasini hamda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, banklarni sanatsiya qilish va tugatish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan muhim qonun loyihalari atroflicha muhokama qilindi.

Investitsiyalarni rag‘batlantirishda muhim imtiyozlar

Majlisda investitsiyalar va investitsiya faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda moddama-modda ko‘rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan investorlarning kafolatlari, huquq va majburiyatlari ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalari belgilanmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda yanada qulay investitsiya muhitini yaratish, amaldagi qonunchilikni ilg‘or xalqaro standartlar, jumladan, Jahon savdo tashkilotining qoidalariga moslashtirishga qaratilgan normalar aks etyapti.

Bundan tashqari, investitsiyalarni rag‘batlantirish choralari va imtiyozlar doirasi kengaytirilmoqda. Xususan, chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonada xorijiy investorlar ulushi bo‘yicha talab 15 foizdan 10 foizgacha tushirilyapti. Investorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va ular bilan ochiq muloqot qilishda yangi yondashuvlar nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasida belgilanayotgan normalar bilan ortiqcha cheklovlar bekor qilinib, investitsiya loyihalarining klassifikatsiyasi qonun darajasida belgilanyapti.

Savol-javoblardan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Talab etiladigan hujjatlar ro‘yxati qisqartiriladi

Deputatlar “O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ikkinchi o‘qishda muhokama qildi.

Mazkur hujjat bilan Mehnat kodeksida “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat majmuida elektron shakldagi mehnat shartnomasini rasmiylashtirish tartibini joriy qilish, ish haqi saqlanmaydigan ta’til davomiyligini belgilash va xodimning o‘rtacha ish haqini hisoblash tartibini o‘zgartirishni nazarda tutuvchi normalar aks etmoqda.

Shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq xodimlar kechki yoki sirtqi ta’lim shaklida o‘qishi mumkin bo‘lgan ta’lim tashkilotlarining turlarini aniqlashtiruvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Davlat organlari va tashkilotlari ishga qabul qilish chog‘ida ishga kirayotgan shaxsning pasporti yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi, mehnat daftarchasiga oid ma’lumotlarni tegishli davlat organlari va tashkilotlaridan mustaqil ravishda, jumladan, axborot tizimlaridagi idoralararo integratsiyalashuv platformalari orqali so‘rab olishi belgilanyapti.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida mas’ul qo‘mita tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilgani, jumladan, qator tadbirlar, seminarlar o‘tkazilgani ta’kidlandi. Deputatlar tomonidan berilgan takliflar ishchi guruh a’zolari ishtirokida tahlil qilinib, ularning aksariyat qismi loyiha matnida aks etgani va har tomonlama pishiq-puxta holatga keltirilgani aytildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish tizimi takomillashtiriladi

Majlisda kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, mazkur qonun loyihasi tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish, nobank kredit tashkilotlarining tadbirkor tomonidan kredit olishda ularning imkoniyatlarini yanada kengaytirishga qaratilgan. Xususan, kredit oluvchiga kafolat (kafillik) berish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ushbu faoliyatni professional asosda amalga oshiruvchi kafolatlar berish tashkilotini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, loyiha bilan nobank kredit tashkilotlarini aksiyadorlik jamiyati yoki mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklida ochish, mikromoliya tashkilotlari tomonidan mijozlarga xorijiy valyutada moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish hamda mikromoliya tashkilotlariga tegishli litsenziya olgan holda to‘lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi huquqiy normalar kiritilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Ro‘yxatga olish tartibini isloh qilishda yagona yondashuv

Deputatlar tomonidan ko‘rib chiqilgan navbatdagi hujjat –“O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi bo‘ldi.

Ma’lumki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 32-moddasida qonuniy asoslarda O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lib turgan har kim mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga egaligi mustahkamlab qo‘yildi.

Qonun loyihasi bilan fuqarolarga doimiy yashash joyini tanlash bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlaridan to‘laqonli foydalanish imkoniyatini cheklagan “Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinishi lozim bo‘lgan shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari toifalarining ro‘yxati to‘g‘risida”gi Qonun bekor qilinmoqda.

O‘zbekiston fuqarolariga, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolariga hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga 10 ish kunigacha turgan joyi



bo‘yicha ro‘yxatga qo‘ymasligi mumkinligi belgilanyapti. Fuqarolarni doimiy yashash joyi yoki vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish ichki ishlar organlarining bir qancha bo‘linmalari bilan bir qatorda davlat xizmatlari markazlari orqali yoki xabardor qilish tartibida tegishli axborot tizimlari orqali amalga oshirilishi qonun darajasida mustahkamlanmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan respublika bo‘yicha mamlakatimiz fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tishining takomillashtirilgan yagona tartibini, shuningdek, xabardor qilish tartibida turgan joy bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tish tizimini joriy etish ham taklif qilinyapti.

Majlisda qonun loyihasi mamlakatimiz fuqarolari va mehmonlarini ro‘yxatga olish tartibini yagona yondashuv asosida isloh etishga, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami huquqlari himoyasini ta’minlashga, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi choralarini maqbullashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatli ekani ta’kidlanib, deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqishda fuqarolar uchun yengillik

Deputatlar tomonidan migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi atroflicha ko‘rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Konstitutsiyada belgilangan muhim normalardan biri – huquqiy ta’sir choralarini qo‘llashda mutanosiblik va yetarlilikning konstitutsiyaviy prinsiplariga tayangan holda ma’muriy javobgarlik choralarini liberallashtirish hamda ularni aniq belgilash taklif etilmoqda.

Bunda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar uchun jarima miqdorlarini aniq belgilash va ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqishda fuqarolarga yengillik yaratishga qaratilgan normalar kiritish nazarda tutilyapti.

Xususan, qonun loyihasi bilan ushbu kodeksning “pasport tizimi qoidalarini buzish” to‘g‘risidagi 223-moddasi o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan, oltmish yoshdan oshgan, to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan, shuningdek, favqulodda vaziyatlar, turar yoki noturarjoylarning yonishi, qulashi, transport vositalarining yonishi kabi hodisalar ro‘y bergani natijasida jabrlangan shaxslarni pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-kartani belgilangan muddatlarda rasmiylashtirmaganlik yoxud doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tmaganlik kabi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikdan ozod etish to‘g‘risidagi qo‘shimcha norma bilan to‘ldirilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o‘qishda qabul qilindi.

Banklarni sanatsiya qilish va tugatish mexanizmlari belgilanmoqda

“Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi quyi palata majlisida birinchi o‘qishda konseptual jihatdan ko‘rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi banklarni sanatsiya qilish va tugatish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan. Undagi normalar to‘lovga qobiliyatsiz banklarni sog‘lomlashtirish yoki tugatish, ularning iqtisodiyot uchun muhim bo‘lgan vazifalari va xizmatlari uzluksizligini ta’minlash, omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, banklarning budjet mablag‘lariga qaramligini kamaytirishga qaratilgan.

Qonun loyihasida Markaziy bankning banklarni sanatsiya qilishga doir huquqiy asoslari nazarda tutilmoqda. Shuningdek, Markaziy bankning bankni ixtiyoriy tugatishni amalga oshirishga doir ruxsatnomasini berish shartlari, ixtiyoriy tugatish jarayonida tugatuvchi tomonidan bajariladigan harakatlar, Markaziy bankka taqdim etib boriladigan hisobotlar hamda tugatish jarayoni ustidan Markaziy bank tomonidan olib boriladigan nazorat qoidalari belgilanyapti.

Bundan tashqari, banklarni sanatsiya qilish maqsadlari va prinsiplari, sanatsiyani moliyalashtirish mexanizmlari ko‘zda tutilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Departament vakolatlari hamda huquqiy asos

Majlisda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘ldi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Jinoyat-protsessual, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi va Budjet kodekslariga Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilish, davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish sohasidagi vakolatlari aniqlashtirilishini nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Bundan tashqari, Jinoyat-protsessual kodeksiga jinoyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvda taftish o‘tkazish hamda dastlabki tergov organlari tomonidan jinoyat ishlarini surishtiruv shaklida amalga oshirish tartibini belgilashga qaratilgan qo‘shimchalar nazarda tutilyapti.

Ta’kidlab o‘tilganidek, qonun loyihasi jinoyatlarni tergov qilish va budjet qonunchiligi sohasida davlat organlarining vakolatlarini qonun hujjati bilan mustahkamlashga, qonun normalarining aniq va bir xilda qo‘llanilishiga hamda sud-huquq sohasidagi islohotlarni huquqiy jihatdan ta’minlashga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga ega.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR – MA’NAVIY YUKSALISH VA MADANIY TARAQQIYOTNING MUHIM ASOSI

“MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI

Bugun mamlakatimizda barcha sohada olib borilayotgan jadal islohotlar yangi O‘zbekistonni yanada rivojlantirmoqda. Bu o‘zgarishlar, yangilanishlar “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi faoliyatini yanada samarali tashkil etishga ham xizmat qilmoqda.

Ta’kidlash o‘rinliki, Asosiy Qonunimizda ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarni jamiyatimiz ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotidagi, ayniqsa, yosh avlod tarbiyasidagi tutgan muhim o‘rni yana bir bor e’tirof etildi.

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishiga oid qoidaning belgilanishi qadriyatlarga asoslangan taraqqiyot yo‘lida ishonchli himoya va huquqiy asos bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

E’tibor beradigan bo‘lsak, yuqoridagi chaqiriqlarning barchasi xalqimizning milliy qadriyatlar tizimini tashkil etadigan g‘oya va qarashlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Qolaversa, mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘vor maqsadning markazida ham **qadriyatlarning eng oliysi Hazrati Inson va uning hayoti turishi**, xalqimizning qadr-qimmatini yanada yuksaltirish uchun 100 ta ulug‘vor maqsaddan iborat “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining qabul qilinishi qadriyatlarning nafaqat tiklanishi, balki ularning amalda barqaror rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Shu bois ham “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi o‘zining 2025 – 2029-yillarga mo‘ljallangan Saylovoldi dasturining muqaddimasida: “Partiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qudratli davlat – yangi O‘zbekistonni barpo etish borasida so‘nggi yetti yilda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar samarasini e’tirof etgan holda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi”, deb qayd etdi.

Parlament va mahalliy Kengashlarga o‘tkazilayotgan navbatdagi saylovlarda biz **“Qudratli davlatga tayangan, qonunlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarga uyg‘un, inson qadri baland, farovon jamiyat qurish”** vazifasini bosh maqsadimiz, **“Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot”** g‘oyasini bosh shiorimiz deb belgiladik.

Biz uchun **“Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot”** shiori milliy-madaniy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyot uyg‘unligida jonajon O‘zbekistonimizni qudratli davlatga aylantirish, xalqimizning farovonligini ta’minlash yo‘lidagi birlashtiruvchi da’vatdir.

Darhaqiqat, milliy qadriyatlar xalqni birlashtiradigan, uning o‘ziga xosligini shakllantiradigan va individual, jamoaviy darajada xatti-harakatlarini belgilaydigan ma’naviy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy tamoyillar yig‘indisidir. Milliy qadriyatlar avloddan-avlodga o‘tib, millatning o‘zligini tanitadigan bebaho merosdir.

Soha mutaxassislarining ta’kidlashicha, qadriyatlar ham o‘z mohiyatiga ko‘ra tabiiy, moddiy, ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, iqtisodiy, amal qilish ko‘lami bo‘yicha esa shaxsiy, oilaviy, jamoaviy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy ahamiyat kasb etadi. Demak, oddiy so‘z bilan aytganda, milliy qadriyatlar – **bu millatning “Meni”dir**.

Saylovoldi dasturining barcha bo‘limida qadriyatlarimizni tiklashga, ularni rivojlantirishga doir aniq maqsad va vazifalar belgilanib, dasturning ikkinchi yo‘nalishi **“Ma’naviy yuksalish va madaniyatni rivojlantirish”** deb nomlanib, 3 ta bo‘lim, 26 vazifadan iborat.

Milliy madaniyat va ma’naviyatni rivojlantirish, qadriyatlarni saqlash, boyitish – asosiy vazifamiz!

Bugun partiya har bir vatandoshimizni o‘z ona yurtiga mansubligini anglatish uchun, milliy qadriyatlar zamiridagi bunyodkor g‘oyalar bilan xalqni qurollantirish uchun va eng muhimi, dunyoning qaysi burchagida bo‘lishimizdan qat’i nazar, **“Biz – birmiz, O‘zbekistonlikmiz”**, degan g‘oya atrofida birlashishga chaqiradi.

Bizga ma’lumki, ma’naviyat va madaniyat milliy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi. O‘zini yuksak ma’naviyatli va madaniyatli xalqqa mansub ekanini ongli ravishda his qilgan, undan faxrlangan inson hech qachon axloqiy va g‘oyaviy jihatdan past madaniyatga ergashmaydi, unga qaram ham bo‘lmaydi. Shu bois ham partiya ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash, madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning poydevori ekanini e’tirof etadi.

Partiyamiz ma’naviy yuksalish jarayonida **“Tarix – kelajak uchun mayoq!”** tamoyili dasturilamal bo‘lishi lozim, deb hisoblaydi. Ushbu jarayonda davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasidan kelib chiqib ish ko‘rish, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanish partiya siyosatining asosini tashkil etadi.

Partiya Saylovoldi dasturida inson salohiyatining ro‘yobga chiqishida uning ma’naviy dunyosi, madaniy dunyoqarashi muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlagan holda, **kitobxonlikni ommalashtirish, teatr, kino va san’atning boshqa sohalarini targ‘ib qilish** orqali jamiyat va har bir shaxs ma’naviyati, madaniy saviyasini oshirish maqsadida quyidagilarni taklif etadi:

* madaniy-ma’rifiy sohada **hokimlar mas’uliyatini** oshirish;

* **teatr san’atini** rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;

* milliy **seriallar ishlab chiqarish konsepsiyasi**ni yaratish;

* **bolalar adabiyoti**, musiqasi, qo‘shiqlari, san’ati, kinosi, multfilmlarini yaratish, **nashrlari faoliyatini rivojlantirish**;

* milliy va o‘zga ramzlar, timsol (simvol)lardan foydalanish **tartiblarini takomillashtirish**;

* **qadimiy asarlar va qo‘lyozmalarni** tadqiq etish, nashr qilishni yanada ko‘paytirish;

* qadriyatlarni toifalashtirish, tiklanishga muhtoj, barqaror saqlanishi zarur qadriyatlar ro‘yxatini tuzish, ommalashtirish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalar milliy qadriyatlar targ‘iboti vositalarining deyarli barchasini qamrab olgani bilan ahamiyatlidir.

Fikrimizni milliy qadriyatimiz bo‘lgan mutolaa madaniyati poydevori hisoblangan bolalar adabiyotining rivoji yo‘lidagi ayrim holatlar borasidagi kuzatuvlarimiz bilan davom ettirsak. Negaki, o‘zlikni anglash **intellektual jarayondir**. Intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi esa kitob mutolaasi bilan bevosita bog‘liq.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kutubxonalarga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaymoqda. Kitobxonlar uchun zarur shart-sharoit yaratilmoqda. Bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirishda axborot-kutubxona muassasalari fondlarini yangi nashrlar bilan boyitish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur masala yuzasidan partiyamiz tomonidan deputatlik guruhlari ishtirokida o‘tkazilgan nazorat-tahlil ishlari davomida mamlakatimizda aholiga xizmat ko‘rsatuvchi ayrim axborot-kutubxona fondlarini yangilashga real ehtiyojlar borligi aniqlangan.

Bu borada O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tasarrufidagi axborot-kutubxona markazlarining ta’minotini kuchaytirish, kutubxonalar binosini qurish va qayta ta’mirlash ishlariga ham ahamiyat berish muhim hisoblanadi.

Xabaringiz bor, partiyamiz keyingi yillarda bolalar adabiyotini rivojlantirishga



o‘zining asosiy vazifasi sifatida qaramoqda. Shu bois partiya yangi dasturida ham **bolalar adabiyoti, musiqasi, qo‘shiqlari, san’ati, kinosi, multfilmlarini yaratish, nashrlar faoliyatini rivojlantirish** vazifasi belgilanganini ko‘rish mumkin.

Mamlakatimizda 2020 – 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan milliy dastur qabul qilinganiga qaramay bolalar va o‘smirlar orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish masalasi hamon dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ta’kidlash joiz.

Yana bir masala. Har yili respublikamizda 5 – 7 ming nomda adabiyotlar nashr qilinadi. Ulardan 25 foizi bolalar adabiyotini tashkil etadi. 2023-yil holatiga ko‘ra, 1 377 nomda 8,5 million nusxada bolalar adabiyoti chop qilingan. Ularning aksariyati qayta nashr etiladigan adabiyotlardir.

Ma’lumotlarga qaraganda, dunyoda kattalarga mo‘ljallangan adabiyotlardan ko‘ra bolalarga taalluqli adabiyotlar ko‘proq nashr etiladi. Xususan, Turkiya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya kabi davlatlarda chop etilayotgan kitoblar umumiy sonining 70 foizini bolalar, 30 foizini kattalar adabiyoti tashkil etadi.

Shu sababli partiya tomonidan ilgari surilayotgan bolalar adabiyoti, musiqasi, qo‘shiqlari, san’ati, kinosi, multfilmlarini yaratish, nashrlari faoliyatini rivojlantirish taklifi barchamiz uchun dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan muhim tashabbus hisoblanadi.

Shuningdek, Saylovoldi dasturida **qadriyatlarni toifalashtirish, tiklanishga muhtoj, barqaror saqlanishi zarur qadriyatlar ro‘yxatini tuzish, ommalashtirish** vazifasi ham o‘rin olgan. O‘tgan saylovlarda milliy qadriyat va an’analarimizni to‘liq xatlovdan o‘tkazish asosida isloh etish, ularni “yo‘qolib borayotgan, ayni paytda, tiklanishga muhtoj milliy qadriyat va an’analar”, “milliy qadriyat va an’analarimizga zid, ayni paytda ommalashgan an’analar”, “barqaror saqlanishi lozim bo‘lgan milliy qadriyat va an’analar” kabi turkumlarga ajratish vazifasi bor edi.

Bu galgi Saylovoldi dasturimizda ushbu masalani yana kiritdik. Negaki, mazkur dolzarb masala ertaga o‘zbekistonlikning ma’naviy qiyofasi qanday bo‘ladi, degan savolni oldimizga ko‘ndalang qo‘yadi. Bu savol o‘zlikni anglashning markazida turadi. Har qanday rivojlangan mamlakatda bu savolga o‘zining javobi bor. Bizning “o‘sish nuqtamiz”ni qadriyatlarimiz belgilab berishi zarur.

Yaqinda ilk bor iqtisodiy masalalar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan tuzilma, ya’ni Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti eng muhim qadriyatlarimiz ro‘yxatini shakllantirdi va ularni iqtisodiy taraqqiyot va xalqimiz farovonligini ta’minlashdagi roli va ahamiyatini tahlil qildi. Bunda ota-onaga ehtirom, lafz, pokizalik, jasorat, o‘zbek tili, harakatda – baraka, erkin va mustaqil fikrlash, yelkadoshlik, bag‘rikenglik, tabiat bilan uyg‘unlik va rozi-rizolik kabilar milliy qadriyatlarimiz sifatida keltirilgan.

Ushbu o‘tkazilgan tadqiqotning ahamiyati shundaki, unda milliy qadriyatlar nafaqat bevosita, balki bilvosita omillar orqali iqtisodiy o‘sishga va farovonlikka erishishda o‘z ta’sirini ko‘rsatishi ilmiy isbotlangan. Ushbu tadqiqotda yuqorida keltirilgan milliy qadriyatlarimizning aholi turmush farovonligi, iqtisodiy taraqqiyot va jamiyat ravnaqiga ta’siri ilmiy asoslangan holda ekonometrik tahlillar yordamida aniqlandi. Masalan, ota-onasi bilan birga yashaydigan fuqarolarning jon boshiga o‘rtacha oylik daromadi alohida yashovchilarnikiga qaraganda 0,09 foiz band yuqori ekanligi, bu esa, o‘z navbatida, YAIMning deyarli 0,7 foizga o‘sishiga olib kelishi aniqlandi.

Shuningdek, tahlillar o‘rta yoki oliy ma’lumotga ega bo‘lgan yoshlar orasida chet tillarini bilish ehtimoli yuqori ekanini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda har bir qo‘shimcha o‘qilgan ta’lim yili ish haqining 8,79 foizgacha o‘sishiga olib kelishi aniqlandi. Ushbu misollar qadriyatlarning iqtisodiy ahamiyati beqiyosligi uni hayotga tatbiq etish nechog‘li zarurligini ko‘rsatadi. Eng muhimi, bu kabi tahlillar iste’molchi madaniyati va kayfiyatidagilarni milliy qadriyatlarning inson uchun ulkan foydasi haqidagi fikrlariga ishontiradi, deb o‘ylaymiz.

Madaniy meros muhofazasi, undan foydalanish, tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish diqqat markazimizda bo‘ladi

Ma’lumki, madaniyatning rivojlanishi har bir millatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, madaniy sohaning qo‘llab-quvvatlanishi xalqning umumiy



turmush darajasini yaxshilashga va milliy iftixorni oshirishga yordam bersa, O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash jarayonida milliy madaniyat va ma’naviyatni rivojlantirish mamlakatning o‘ziga xosligi va suverenitetini saqlashga yordam beradi. Globallashuv davrida milliy madaniyat va qadriyatlarni asrab qolish har bir millat uchun muhim masala bo‘lib qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan partiya **madaniy meros muhofazasi, undan foydalanish, tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish borasida madaniy meros obyektlarini ijaraga berish tizimini tartibga solish** tarafdori ekanini bildiradi.

Har bir mamlakat o‘z tarixi va boy o‘tmishi bilan tirik va barhayot. O‘zbekiston ham uch ming yillik tarixi bilan necha asrlardan buyon dunyo ahlini hayratga solib kelmoqda. Yurtimizdagi tarixiy-me’moriy obidalar ajdodlarimizning tengsiz aqlu zakovati, aniq fanlar borasidagi boy tajribasidan darak bermoqda. Ana shu moddiy-madaniy merosni asrab-avaylash, kelgusi avlodga bus-butun yetkazish esa ham qarz, ham farzdir.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 61-moddasida ham: “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi”, deb belgilangani bejiz emas, albatta.

Ma’lumotlarga ko‘ra bugungi kunda mamlakatimizda **8 210 ta moddiy madaniy meros**ning ko‘chmas mulk obyekti davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, shundan **4 788 tasi arxeologiya, 2 265 tasi arxitektura, 625 tasi** monumental **san’at asarlari, 530 ta diqqatga sazovor joylardan iborat**. O‘zbekiston Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz, Termiz kabi javohir muzey shaharlarga ega bo‘lsa-da, ammo ulardagi madaniy obyektlarga e’tibor va ulardan samarali foydalanish yetarli darajada emas.

Aynan shu sababli O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi **madaniy meros obyektlarini ijaraga berish tizimini tartibga solish tarafdori** bo‘lib maydonga chiqmoqda. Partiyaning madaniy meros obyektlarini ijaraga berish tizimini tartibga solishga bo‘lgan pozitsiyasi partiyaning milliylik va milliy qadriyatlarni himoya qilishga bo‘lgan qat’iy intilishini ko‘rsatadi.

Partiya o‘zining maqsadlarini, xususan, madaniy va tarixiy yodgorliklarni saqlash, milliy merosni muhofaza qilish orqali o‘zligini va shonli tarixini asrashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Bu tashabbus orqali partiya **madaniy yodgorliklardan tijorat maqsadlarida foydalanishning oldini olishga, ularni milliy boylik sifatida butunligicha saqlab qolishga** harakat qilayotganligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, partiya mazkur yo‘nalishda ro‘yxatga olinmagan **madaniy meros obyektlarini aniqlash**, davlat muhofazasiga olish, yo‘qolib ketishi yoki buzilishining oldini oluvchi **qonunchilik tashabbuslarini ilgari surish**, arxeologiya yodgorliklarini ochiq osmon ostidagi **muzeyga aylantirish**, madaniy meros obyektlarini **ro‘yxatga olish**, saqlash va foydalanish tartibini takomillashtirish, xorijda saqlanayotgan **qadimiy qo‘lyozma, kitoblar va boshqa osoriatiqalarimizning** asli yoki nusxasini mamlakatimizga qaytarish hamda madaniy, tabiiy va boshqa meros obyektlarini **UNESCO ro‘yxatlariga kiritish** takliflarini ilgari surmoqda.

Umuman olganda, mazkur tashabbuslarning amalga oshirilishi boy tarix va madaniy merosimizni asrash hamda keyingi avlodga yetkazish, ularni jahon xalqlariga tarannum etish, ularning huquqiy himoyasini mustahkamlash imkonini beradi.

Davlat tilini mamlakatimiz va xorijda keng targ‘ib etish – ustuvor vazifamiz

Partiya har qanday sharoitda milliy manfaatlarni murosasiz himoya qilish, jamiyatni yot madaniyatlar hisobiga emas, balki urf-odat, an’ana va qadriyatlarga asoslanib rivojlantirish maqsadida o‘z Saylovoldi dasturining **ma’naviy yuksalish va madaniyatni rivojlantirish** yo‘nalishida **davlat tili maqomini oshirish, mamlakatimiz va xorijda keng targ‘ib etish**ga ham alohida e’tibor qaratgan.

Til millatning madaniyati, tarixi va o‘zligini saqlab qolishda hal qiluvchi omillardan biridir. Millat o‘z tilidan uzoqlashsa, madaniy qadriyatlaridan ham uzoqlashishi mumkin, bu esa millatning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. O‘zbek tilining qonun, ilm-fan va texnologiya sohalarida to‘liq qo‘llanilishiga erishish shuning uchun juda muhim. Milliy o‘zlikni saqlashda til beqiyos ahamiyat kasb etib, u nafaqat muloqot vositasi, balki millatning fikrlash tarzi, ilm-fan va texnologik taraqqiyotini aks ettiradigan vosita hamdir.

Shu bois partiya davlat tilining maqomi va nufuzini oshirishga qaratilgan davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlab, jamiyat hayotining barcha jabhasida uning to‘liq qo‘llanilishi tarafdori ekanini ta’kidlagan holda bu borada qator tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Xususan, partiya O‘zbekistonda **davlat tili haqidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish** masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda.

Ilm-fan, texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrda tilimiz sofligini saqlash, joylarga nom tanlashda ma’naviyatimiz va mentalitetimizga xos va mos, turli sohalar orqali tilimizga kirib kelayotgan yangi atamalarning o‘zbekcha muqobillarini yaratishga hamda ijtimoiy hayotimizda davlat tili, ma’naviy qadriyatlarimiz bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda barcha birdek mas’ul bo‘ladi.

Shu bois partiyaning **davlat tiliga doir hujjatlarni isloh qilish bo‘yicha Davlat komissiyasini tashkil etish, “Davlat tili haqida”gi Qonunni yangi tahrirda qabul qilish** borasidagi tashabbuslari ham dolzarb ahamiyat kasb etib, davlat tili nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytganda, yurtimizda milliy uyg‘onish davrining navbatdagi bosqichi boshlandi. Bu jarayonda esa partiya g‘oya va maqsadlaridan kelib chiqsak, **ma’naviy yuksalish va madaniyatni rivojlantirish masalasi** hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Partiya tomonidan taklif etilayotgan tashabbuslar xalqimizning boy madaniyati, ma’naviy va madaniy merosi hamda davlat tili nufuzining yanada oshishiga xizmat qilib, mamlakatimizni **“Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot”** g‘oyasi asosida yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Zuhra MIRGAZIYEVA,
Ruslan JUMAMURATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar.

“MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 16-oktabr

Zamon bilan uyg‘un va hamohang rivojlanish yo‘lida

1 Ta’kidlanganidek, mazkur nufuzli konferensiya shiddatli globallashuv sharoitida islom dini qadriyatlari, uning tinchlikparvarlik mohiyatini keng targ‘ib qilish, yoshlarni diniy bag‘rikenglik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda islom diniga yot radikal qarashlarga qarshi murosasizlik tuyg‘usini shakllantirish, bu borada O‘zbekiston tajribasini, diniylik va dunyoviylik muvozanatini saqlash yo‘lidagi sa’y-harakatlarini xalqaro jamoatchilikka yetkazishga imkon beradi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda keyingi yillarda diniy-ma’rifiy sohada ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Hadis ilmi maktabi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Termiziy nomidagi islom instituti ochildi. Bu muassasalarning barchasi nafaqat diniy, balki dunyoviy ilmlarda ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritgan buyuk allomalarimizning merosini asrab-avaylash, bugungi kun voqeligi nuqtayi nazaridan chuqur o‘rganish va tadqiq qilish, targ‘ib etish, nafaqat musulmon olami, balki butun jahon jamoatchiligiga tanitishga xizmat qiladi.

Xalqaro anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Muzaffar Komilov, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisi Sodiq Toshboyev, O‘zbekiston Musulmonlari idorasi raisi, muftiy Shayx Nuriddin Holiqnazar va boshqalar ushbu anjuman Islom dinining asl mohiyatini ochib berishdek ulug‘vor maqsadlarni ko‘zlashi bilan ahamiyatli ekanini ta’kidladi.

Konferensiyada Islom olami uyushmasi Bosh kotibi o‘rinbosari Shayx Abdulrahmon Abdulloh al-Zayd (Saudiya Arabistoni), Kavkaz musulmonlari idorasi raisi, muftiy Shayxul-Islom Allohshukur Poshshozoda (Ozarbayjon), Misr Arab Respublikasi muftiysi, professor Nazir Muhammad Ayyod va boshqalar allomalar diyori bo‘lgan O‘zbekiston “Jaholatga qarshi – ma’rifat” g‘oyasining dunyo uzra yoyilishida o‘zining munosib hissasini qo‘shayotganini e’tirof etdi.

Anjuman davomida bugungi nihoyatda murakkab va tahlikali davrda mintaqamiz hamda dunyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash mavzuiga doir ma’ruzalar o‘qildi, o‘zaro tajriba almashish va bu yo‘nalishda hamkorlik



Юнус БЎРИЕВ олган сурат.

qilish masalalari keng muhokama qilindi. Zero, mustahkam tinchlik va farovonlikka birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan erishiladi.

Muhokamalar “Islom qadriyatlarini asrab-avaylashda hanafiy-moturidiy ta’limotining mohiyati”, “Globallashuv jarayonida islom: mo‘tadillik va bag‘rikenglik”, “Zamonaviy jamiyatda g‘oyaviy tahdidlarning oldini olish omillari va amaliy yechimlar (O‘zbekiston tajribasi)” hamda “Islomda ijtimoiy himoya masalalari” kabi 4 ta shu’baga bo‘lingan holda olib borildi.

Konferensiya 16-oktabr kuni Xiva shahrida davom etadi. Unda “Islom – ezgulik va tinchlik dini” mavzuidagi xalqaro konferensiyaning yakuniy deklaratsiyasi qabul qilinadi.

Anjuman dunyo xalqlarining birdamligi va mushtarak taraqqiyotini ta’minlashda islom ta’limotining, buyuk ajdodlar merosining o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib berish bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur maqsadlarni amalga oshirishga intilayotgan buzg‘unchi toifalarga qarshi kurashda ulamolarning yakdil fikrini qo‘llab-quvvatlashi bilan ham g‘oyat muhimdir.

Abduvali SOYIBNAZAROV (“Xalq so‘zi”).

SIFATLI TA’LIM ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH MUMKIN

Keyingi yillarda jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhasini qamrab olgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini pasaytirish borasida ancha yutuqlarga erishildi.

Ammo bu natijalar hali yetarli emas. Kambag‘allikni kamaytirish − bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish,kasbga tayyorlash va ish o‘rinlarini ko‘paytirishga qaratilgan kompleks vazifadir. Shu jarayonda muhtoj odamlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy yordam ko‘rsatish,kredit ajratish bilan kambag‘allik muammosini hal etishda ijobiy natijaga erishish mumkin emasligi ayon bo‘ladi. Albatta,aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash zarur,ammo kambag‘allikning turli xil sabablarini hisobga olgan holda,unga qarshi kurashda muhim yutuqlarga odamlar o‘zlarining moddiy muammolarini mustaqil hal eta oladigan va o‘zlarini zarur daromad bilan ta’minlaydigan sharoitlar yaratilgandagina erishish mumkin.

Mulohaza

Shu o‘rinda, yana bir masalaga e’tibor qaratish zarur. Iqtisodiy o‘sish asnosida kambag‘allik bilan kurashib bo‘lmaydi. Buning uchun davlat darajasida jiddiy chora-tadbirlar zarur.

Birinchi navbatda, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ta’lim sifatini oshirish, tibbiyot xizmatlarini yaxshilash, ijtimoiy dasturlar qabul qilish va amalga oshirish taqozo etiladi. Masalan, ta’lim orqali odamlarni savodli qilish, bandligini ta’minlash mumkin va bu borada amaliy ishlarga qo‘l urildi. Xususan, Prezidentimizning “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ham shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Mazkur qaror asosida tashkil etilgan “Ishga marhamat” monomarkazlari mamlakatimizda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish, aholining ishchanlik faolligini oshirish, kambag‘al va ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish, shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish imkonini yaratmoqda.

Keyingi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dunyoda o‘xshashi kam bo‘lgan vertikal boshqaruv tizimi yaratilganini ta’kidlash joiz. Bu esa mahallalardagi yoshlar yetakchilari orqali qanchadan-qancha yigit-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, bandligini ta’minlash, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq masalalarni quyi bo‘g‘inning o‘zida hal etish imkonini bermoqda.

Aholini oliy ma’lumotli qilish va sog‘lig‘ini saqlashga e’tibor bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu ham kambag‘allikdan xalos bo‘lishning muhim shartidir. Bugungi kunda oddiy, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarining oliy ta’lim olishi uchun ham sharoit yaratilyapti. Kambag‘al oilalarga maxsus stipendiyalar joriy etish yoki boshqa yo‘llar bilan qo‘llab-quvvatlash choralari shular jumlasidan. Chunki ular bilim olib, yaxshi mutaxassis bo‘lib yetishsa, mamlakat iqtisodiyotiga foyda keltiradi.



Yurtboshimiz tomonidan najot ilmda, najot maktabda, deya bot-bot takrorlanayotgani bejiz emas. Tahlillar ko‘rsatishicha, oliy ma’lumotga ega bo‘lganlarning keltiradigan nafi ma’lumotsizlarga nisbatan yuqori bo‘ladi. Boz ustiga, ta’lim tizimi ta’lim berish orqali mehnat bozori va ishlab chiqarish bilan bog‘langan. Ta’lim xizmat ko‘rsatish sohasining tarkibiy qismi va umuman milliy xo‘jalikning bir bo‘lagi sifatida malakali ishchi kuchini tayyorlash va qayta tayyorlashda bevosita ishtirok etadi va bu orqali yalpi ichki mahsulotni yaratishga hissa qo‘shadi.

Oliy ta’lim tizimi malakali ishchi kuchini shakllantirish va uning sifatini oshirish orqali mamlakatning iqtisodiy o‘sishiga erishishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ta’lim tizimi va fan sohasi o‘rtasidagi bog‘liqlik innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim va kadrlarni kasbiy tayyorlash sifatiga professor-o‘qituvchilarning ta’sir etuvchi omillar sanalishini inobatga olsak, davlatimiz tomonidan ularning maoshlari 2-3 barobar oshirilgani kambag‘allikni qisqartirishda muhim omil bo‘lishiga shubha yo‘q.

Kezi kelganda aytish lozimki, O‘zbekiston iqtisodiy potensialni maksimal darajada tatbiq etish imkoniyatiga ega. Oliy ta’lim tizimi esa mehnat bozoriga keragidan ancha kam bitiruvchilarni yetkazib berayotgan edi. O‘zbekistonda aholi jon boshiga daromadlarni hisobga olgan holda, oliy ta’lim tizimining kengroq qamroviga ehtiyoj sezayotganini inobatga olib yangidan-yangi oliy ta’lim muassasalari ochildi. Bundan ko‘zlangan maqsad ham kambag‘allikdan chiqishdir. Buning uchun ta’lim sifatini oshirish va ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish lozimligi qayta-qayta ta’kidlanyapti. Oliygoh, kollej yoki texnikumga kirishda grant uchun yetarli ballning 80 foizini to‘plagan kambag‘al oila farzandlariga qo‘shimcha grant ajratilishi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan talabalarga foizsiz ta’lim krediti berilishi hamda kambag‘al oiladagi xotin-qizlarning oliy ma’lumotli bo‘lishiga qaratilgan tashabbuslar o‘qishga moddiy imkoniyati yetarli bo‘lmagan yurtdoshlarimiz qalbini quvonchga to‘ldirmoqda.

Bundan tashqari, yurtimizda axborot texnologiyalari sohasida o‘zini o‘zi band etgan, qo‘shilgan qiymat yaratib, xizmatlarni eksport qilayotgan yoshlar uchun katta imkoniyatlar ochib berilmoqda. Xususan, bu sohada o‘zini o‘zi band qilgan yoshlarga IT-park rezidenti maqomi berildi. Ular uch yil muddatga barcha soliqlardan ozod qilindi. Yoshlarni katta daromad keltiradigan kasblarga o‘rgatish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan loyihalarni ko‘paytirishga qaratilayotgan e’tibor tufayli kambag‘allik ko‘lami qisqarmoqda.

Kambag‘allikdan chiqarish deganda ba’zilarda odamlarga ish bersak, ular daromadga ega bo‘lsa, o‘z-o‘zidan kambag‘allikdan chiqib ketadi, degan fikr mavjud. Ammo kambag‘allikka qarshi kurash murakkab jarayon. Jahon tajribasini o‘rganadigan bo‘lsak, kambag‘allikka qarshi kurashda qator muvaffaqiyatlarga erishilganini ko‘rish mumkin. Lekin tor doirada o‘ylab, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha kompleks choralarni amalga oshirmasdan muvaffaqiyatsizlikka yuz tutgan mamlakatlar ham yo‘q emas.

Yana bir masala – kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlar bilan manfaatli hamkorlik qilish tobora ahamiyatli bo‘lib bormoqda. Tadbirkor hamisha saxovatpesha bo‘lishi, yetim-yesirlarga bosh bo‘lib, ularning o‘z hayot yo‘llarini topib olishiga ko‘maklashishi, shubhasiz, qadriyatlarimizga xos fazilat. Zero, “qars ikki qo‘ldan chiqadi” deganlaridek, ehtiyojmand aholini ish bilan ta’minlagan korxonalarga turli imtiyozlar berilishi va loyihalarni moliyalashtirishda yangi tizim yaratilishi bo‘yicha Prezidentimiz tomonidan bildirilgan tashabbuslar davlat va tadbirkorlar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlaydi.

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish sohasidagi o‘ziga xos va xorijiy mamlakatlardan tubdan farq qiladigan jihat – yurtimizda mahalla instituti mavjudligi. O‘zini o‘zi boshqarishning mazkur noyob tuzilmasi jamiyat boshqaruvining eng quyi tayanch bo‘g‘ini hisoblanadi. Shu sababli mahalladagi islohotlar aholi farovonligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish samaradorligiga bevosita ta’sir etadi. Mahallada har bir oilaning turmush darajasini monitoring qilish orqali yashash sharoiti, asosiy ijtimoiy xizmatlarga ehtiyojlarini aniqlash imkoni mavjud. Shuning uchun kambag‘allik ko‘lamini obyektiv baholash, monitoring qilish, aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishda mahallaning o‘rni va ahamiyati juda katta.

2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya bo‘yicha qator aniq maqsadlar belgilab berilganki, ushbu ustuvor vazifalar bu boradagi ishlar rivojini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Tayyorlangan “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq, kambag‘allikni qisqartirish maqsadida xususiy sektor va tadbirkorlikning turli shakllari rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish, kambag‘al oilalardagi ishsizlarni doimiy ish o‘rinlari bilan ta’minlash, qishloq joylarda kambag‘al oilalarga tomorqa uchun yer ajratish, dehqonchilik va chorvachilikni tashkil etish uchun imtiyozlar berish, mahallalarda hokim yordamchilari tashabbusi bilan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini shakllantirish hamda kerakli mablag‘ berish, kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan muammoli mahallalarda maqsadli dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilyapti. Har bir kambag‘al oilada, ayniqsa, xotin-qizlar orasida oliy ma’lumotlilar bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun ular foizsiz ta’lim kreditlari, grantlar va boshqa moliyaviy yordamlar orqali qo‘llab-quvvatlanyapti.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 11-sentabr kuni kambag‘allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ta’kidlanganidek, 2020-yilda 7,5 million yoki 23 foiz aholining daromadi kambag‘allik chegarasiga yetmasdi. O‘tgan yillarda 3,5 million odamni daromadli qilish orqali 2023-yil yakuni bilan kambag‘allik darajasi 11 foizga tushdi. Davlatimiz rahbari maqsad juda keng ko‘lamli ekani, unga barcha hissa qo‘shishi kerakligini ta’kidladi. Xususan, bundan buyon kambag‘allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi. Hukumatdan tortib, tuman tashkilotigacha barcha bo‘g‘indagi rahbarlarning kundalik ishi oilalarni kambag‘allikdan olib chiqish bo‘lishi kerak. Bu borada nazorat ham, so‘rov ham qattiq bo‘ladi.

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan milliy model o‘ziga xosligi va keng ko‘lamliligi, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavf-xatarlarga qarshi oldindan chora-tadbirlar ishlab chiqilgani, Taraqqiyot strategiyasi bilan o‘zaro muvofiqlashganini ta’kidlash lozim. Bunday sa’y-harakatlar kambag‘allikni keskin kamaytirish uchun muhim zamin bo‘lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Baxtiyorjon AKBARALIYEV,
Andijon davlat universiteti rektori,
texnika fanlari doktori.

SIYOSIY TADBIRLARDA JAMOAT TARTIBI VA XAVFSIZLIGI QANDAY TA’MINLANADI?

M S K
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASI

1 Xususan, xavfsizlik va tartibni saqlash maqsadida mutasaddi vazirlik va idoralar tomonidan saylov uchastkalari binolari atrofiga qo‘shimcha 332 ta videokuzatuv kamerasi, 528 ta binoga yoritish moslamalari o‘rnatildi.

Shuningdek, barcha binoga olib boradigan yo‘llar ko‘rikdan o‘tkazilib, qo‘shimcha ravishda yo‘l belgilar, yo‘l yotiq chiziqlari, svetoforlar bilan ta’minlangan hamda 270 ta bino atrofida avtoturargohlar tashkil qilindi.

Bundan tashqari, majlisda barcha saylov uchastkalarining yong‘inga qarshi holati tekshiruvdan o‘tkazilib, 450 tasida profilaktik ko‘rik uyushtirilgani hamda qo‘shimcha ravishda 664 ta bino yong‘inni o‘chirish birlamchi vositalari bilan ta’minlangani xususida ma’lumot berildi.

Shu bilan bir qatorda, Energetika vazirligi tomonidan saylov kuni komissiyalarning binolarini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash choralari ko‘rilgani ma’lum qilindi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan bo‘lajak saylovlarni o‘tkazish davrida jamoat tartibini va xavfsizligini ta’minlash, favqulodda vaziyatlardan muhofaza etish, yong‘in xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Shu bilan birga, kun tartibiga muvofiq xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning 108 nafar vakili xalqaro kuzatuvchi sifatida akkreditatsiyadan o‘tkazildi hamda boshqa masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

“Jahon chempionati – 2026”

Muhim g‘alaba qo‘lga kiritildi

Kecha futbol bo‘yicha 2026-yilda o‘tkaziladigan Jahon chempionatiga yo‘llanma olish uchun Osiyo futbol konfederatsiyasi 3-bosqich saralash o‘yinlarining 4-tur bellashuvlari davom ettirildi. Toshkentdagi muhtasham “Bunyodkor” stadionida O‘zbekiston milliy terma jamoasi Birlashgan Arab Amirliklari jamoasini qabul qildi.



Mazkur jamoa O‘zbekiston termasi bilan eng ko‘p duch kelgan raqiblardan biri hisoblanadi. Shu paytga qadar BAA bilan jami 17 marotaba turli musobaqalarda uchrashgan bo‘lsak, faqatgina to‘rtta o‘yinda ular ustidan zafar quchilgan. Qolgan bahslarda 4 ta durang va 9 ta mag‘lubiyat qayd etilib, to‘plar nisbati arablar foydasiga hal bo‘lgan – 19:25. Toshkentda kechgan bahslarda esa futbolchilarimiz biror marta ushbu terma jamoani mag‘lubiyatga uchratmagan. Srechko Katanes shogirdlaridan mazkur noxush an’anani nafaqat yo‘qotish, shu bilan birga, guruhdagi yetakchilik o‘rnimizni saqlab qolish uchun g‘alaba talab etilardi.

Aytish kerakki, o‘yinning dastlabki daqiqalaridan hujumga otlangan futbolchilarimiz 1-bo‘limda birmuncha sust harakat qilishdi. Ikkinchi bo‘limda murabbiylardan zarur ko‘rsatmalarni olgan milliy terma jamoamiz hujumkorlikni oshirib, raqib darvozasi tomon zarbalar sonini keskin ko‘paytirishdi. 66-daqiqada navbatdagi hujumlarning birida Abdulla Hamad Sherzod Nasrullayevga nisbatan o‘ta qo‘pol o‘ynadi va bu qoidabuzarlik uchun xitoylik hakam tomonidan chetlashtirildi. 75-daqiqada Bobir Abduxoliqovning jarima maydonchasidagi faolligidan so‘ng to‘p raqib futbolchisining qo‘liga tegdi. Hakam ikkilanmay 11-metrlik belgini ko‘rsatdi. Otabek Shukurov bergan zarba esa gol bo‘lib, futbolchilarimizni hisobda oldinga olib chiqdi.

Bahs 1:0 natijasi bilan yakunlanib, muhim g‘alaba qo‘lga kiritildi. Ayni paytda O‘zbekiston milliy terma jamoasi 10 ochko bilan guruh peshqadamlaridan biri bo‘lib turibdi.

Guruhdagi Qirg‘iziston – KXDR o‘yinida 1:0 hisobida mezbonlar g‘alaba qozongan bo‘lsa, Eron – Qatar uchrashuvi 4:1 hisobi bilan tugadi.

Sunnatilla ISLOMOV
(“Xalq so‘zi”).

Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi universitetning bosh muhandisi
Sharif OSTANOVning
vafoti munosabati bilan marhumning oila a’zolari va yaqinlariga chuqur ta’ziya izhor qiladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan.Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan.Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 01.30 Topshirildi — 01.40 1 2 3 4 5 6